

Haftaning muhim voqealari

Dollarning rasmiy kursi 11 ming so'mga yaqinlashdi

O'zbek paxtasiga boykot bekor qilindi

Bog'chalarga bolalarni 2 yoshdan qabul qilishga ruxsat berildi

# YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK  
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 11 (16464)  
2022-yil, 12-mart  
shanba

[/yoshlarovoziuz](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Mahallada yoshlar yetakchisi  
3-bet


Yoshlar bilan  
uchrashuv

Yoshlar hayoti  
4-bet

"Eng baxtli qizlardan  
biriman"


Qaynoq hayot  
7-bet

"Taxi"ning  
muammolari



batafsil  
3-bet →

YOSHLAR YETAKCHILARI  
**“KELAJAK BUNYODKORI”**  
MEDALI BILAN TAQDIRLANDI



## QAYSI TOIFADAGI YOSHLARGA MODDIY YORDAM BERILADI?

**2** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-qaroriga binoan, mahalladagi yoshlar yetakchilari tavsiyasi asosida moddiy ahvoli qiyin yoshlarga "Yoshlar daftari" tizimida bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha miqdorda bir martalik moddiy yordam beriladi.

**2**

**Savol: Moddiy yordam olish uchun berilgan so'rov qanday holatlarda rad etiladi?**

**Javob:** Fuqaro yuqoridagi toifalarga kirmasa so'rov rad etiladi.



**9**

**Savol: Yordam puli qaysi manbadan to'lab beriladi?**


**Javob:** Tuman (shahar)lar hokimliklarining buxgalteriya bo'limlari "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan zarur mablag'larni Xalq bankining tegishli bo'limi (filiali) ga o'tkazadi. Xalq bankining tegishli bo'limi (filiali) tomonidan bir martalik moddiy yordam to'lovlari har oyning 5-27-sanalarida amalga oshiriladi.



**3**

**Savol: Yosh chegarasi bormi?**

**Javob:** Ha, 14-30 yosh.



**6**

**Savol: Qanday hujjatlar talab qilinadi?**

**Javob:** Fuqarolik pasporti

**1**

**Savol: Kimlarga beriladi?**

**Javob:** To'liq davlat ta'minotida bo'lmagan, hayotiy murakkab vaziyatda tushgan, birinchi navbatda, quyidagi toifadagi yoshlarga tayinlanadi:

- boquvchisini yo'qotgan va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga;
- o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan ishga layoqatsiz yoshlarga;
- I va II guruh nogironi bo'lgan yoshlarga;
- qaramog'ida nogiron bola bo'lgan yosh oila (er-xotinning biri)ga;
- ota-onalardan biri I yoki II guruh nogironi bo'lgan, ikkinchisi esa ish faoliyatini to'xtatgan holda bemorga qarashga majbur bo'lgan yoki ikkala ota-ona ham I yoki II guruh nogironi bo'lgan yoshlarga;
- tabiiy ofatlar, halokatlar, yong'inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatida hayotiga, sog'lig'iga, mulkiga zarar yetgan yoshlarga.

Murakkab hayotiy vaziyatga tushgan boshqa toifadagi yoshlarga, asoslantiruvchi sabablari mavjud bo'lganda, sektorlar rahbarlarining xulosalariga asosan Vasiylik Kengashi qarori bilan bir martalik moddiy yordam berilishi mumkin (Asos: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 250-sonli qarori).

**4**

**Savol: Ularning moddiy ahvoli qanday mezonlar asosida o'lchanadi?**

**Javob:** Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar – muomalaga va mehnatga layoqatsiz, nogironligi yoki salomatligida nuqsoni bo'lgan (nafaqa olmaydigan), boquvchisini yo'qotgan, yetim, "Mehribonlik" uylari va bolalar shaharchalarida tarbiyalangan, muqaddam sudlangan, probatsiya hisobida, profilaktik hisobda yoki ma'muriy nazorat ostida turuvchi ijtimoiy yordamga muhtoj yoshlar, shuningdek, "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi farzandlari.

**7**

**Savol: Moddiy ahvoli qiyin yoshlar tegishli tartibda yordam so'rab murojaat qilma-gan bo'lsa ham yetakchi o'z tashabbusi bilan bir martalik moddiy yordam berish bo'yicha Vasiylik Kengashiga tavsiya kiritishi mumkinmi?**

**Javob:** Albatta, yetakchi yoshlarning ijtimoiy holatiga qarab tavsiya beradi. Bir martalik moddiy yordam Vasiylik Kengashi qarori bilan beriladi.

**8**

**Savol: Moddiy yordam olish to'g'risidagi murojaatni ko'rib chiqish muddati qancha?**

**Javob:** Ariza yoki shikoyat tegishli davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

**10**

**Savol: Pul qanday ko'rinishda to'lab beriladi?**

**Javob:** Fuqaroning xohishiga qarab, moddiy yordam naqd pul shaklida yoki shaxsiy bank kartasi orqali beriladi.



**9 000**

dan ortiq mahallalardagi Xotin-qizlar faoli vakant lavozimlari uchun ochiq tanlov e'lon qilindi!



Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi bilan hamkorlikda mahallalardagi Xotin-qizlar faoli vakant lavozimlariga ochiq tanlov e'lon qiladi.

Nomzodlar [vacancy.argos.uz](http://vacancy.argos.uz) saytidan ro'yxatdan o'tib, 2022-yil 15-martgacha (shu kuni ham) so'ralgan hujjatlarni elektron shaklda taqdim etishlari zarur.

# YOSHLAR

## BILAN UCHRASHUV

Shu kunlarda respublikamiz bo'ylab mahallalarda tashkil etilgan yoshlar yetakchisi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish maqsadida tadbirlar tashkil etilmoqda. Respublika ishchi guruhi tashabbusi bilan joriy etilayotgan galdagi tadbir Surxondaryo viloyatida bo'ldi. Viloyat yoshlar markazi faollar zalida Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev va yoshlar uchrashuvi bo'lib o'tdi.



Xalqaro imtihonlarda kompensatsiya olgan, o'quv markazlari tashkil qilgan yoshlar, volontyorlar, kitobxonlar, yoshlar yetakchilari, umuman viloyatning faol qatlamini bir nuqtaga jamlagan uchrashuv ochiq muloqot tarzida bo'lib o'tdi. Unda yoshlar qo'lga kiritgan yutuqlari hamda yangi rejalarini o'rtoqlashdi.

Yoshlar ishlari agentligi direktori A. Sa'dullayev yoshlar murojaatlarini tinglar ekan ularning shijoati, ertangi kungacha intilishlaridan quvonganini yashirmadi. Uchrashuvda o'z g'oyalari bilan faollik ko'rsatgan yoshlar taqdirlandi.

Berilgan takliflar tinglanib, shu zalning o'zida ularni amalga oshirish choralari belgilandi. Shunday takliflardan birini sherobodlik Munajatxon ilgari surdi. U tuman markazida yoshlarga ingliz tilini o'qitish uchun o'quv markazi ochildish taklifini berdi. Taklifni qo'llab-quvvatlagan A. Sa'dullayev Sherobod tumani yoshlar markazidan joy ajratilishini, markaz faoliyatini

to'g'ri yo'lga qo'yish uchun bir haftalik o'quv kursi tashkil etilishini aytdi.

Uchrashuvda Yoshlar ishlari agentligi direktori yosh kitobxon oilaga noutbuk va shaxsiy kutubxonasi uchun 100 dona kitob jamlanmasini sovg'a qildi.

Uchrashuvning galdagi manzili viloyatning Boysun tumani bo'ldi. Hududning "Boshrabot" mahallasida zamonaviy ko'rinishdagi sport obyekti qurilishi bo'yicha topshiriq berilib, dastlabki ishlar boshlab yuborildi.

Angor tumanidagi yoshlar bilan uchrashuvda Angor, Qiziriq va Bandixon tumanidan mas'ullar hamda yoshlar yetakchilari ishtirok etdi. Yig'ilish davomida mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha rejalar tuzildi.

**Nargiza MUSAYEVA,**  
Yoshlar ishlari agentligining  
Surxondaryo viloyati  
boshqarmasi axborot va  
media bo'yicha mutaxassisi

– Davlatimiz rahbarining 2022-yil 18-fevralda tumanimizga tashrifi davomida "Iqbol" mahallasida yoshlar bilan olib borayotgan ishlarim, natijalar hamda rejalarim haqida so'zlab bergandim, Prezidentimiz mamnun ekanliklarini hamda mahalladagi hech bir yoshni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakligini ta'kidlab bu borada bizga ulkan ishonch bildirdilar.

Bugun ko'ksimda taqilib turgan "Kelajak bunyodkori" medali bu mas'uliyatni bir necha marta oshirdi!

### ➔ 1 KELAJAKNI BIRGA BUNYOD ETAMIZ

– Bugun o'zim tug'ilib o'sgan "Jizza" mahallasida yoshlar yetakchisi sifatida ish olib boryapman. Bu vazifani o'z yelkamga olar ekanman mahalladagi barcha yoshlarning dard-u tashvishini o'zimning eng birinchi tashvishimga aylantirishim, ularning manfaatlari va kelajak sari olg'a qadam tashlashlari uchun ko'priq vazifasini bajarishim lozimligini tushunib yetdim.

Mahallamiz ahlining 807 nafari 18 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar. O'rganish jarayonida ularning 85 nafari ishsiz (shundan 7 nafari oliy ma'lumotli mutaxassis), 16 nafar yosh ijtimoiy himoyaga muhtoj ekani va 106 nafari oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgani, 6 nafari "Temir daftar"da turgan ayollar farzandi ekani aniqlandi. 20 nafar yoshga "Yoshlar daftar" orqali 25 sotixdan yer berilib, bandligi ta'minlandi.

10 nafar mahalladosh o'quv markazlarida bepul hunar o'rganmoqda. O'qishini tamomlagach, subsidiya asosida qizlar uchun tikuv mashinalarini, yigitlarga payvandlash uskunalarini olib berish harakatidaman.

Bu yil men uchun juda omadli kelmoqda. O'z qiziqishim, kelajak maqsadlarimga mos yetakchilik faoliyati bilan shug'ullanayotganim buning bosh sababidir. Qolaversa, bahorning ilk kunlarida Prezidentimiz farmoniga binoan "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandim. Bizni yuksak darajada rag'batlantirayotgan muhtaram Prezidentimizga, Yoshlar ishlari agentligiga va meni qo'llab-quvvatlayotgan barcha tengdoshlarimga o'z minnatdorчилигимni bildiraman.

**Tursunoy XOLIQOVA,**  
Kasbi tumanidagi  
"Jizza" mahallasi yoshlar  
yetakchisi



**Go'zal RAXMANKULOVA,**  
Yangihayot tumanidagi  
"Iqbol" mahallasi yoshlar  
yetakchisi:

1999-YIL  
10-IYUNDA  
TA'SIS ETILGAN.



ZULFIYA  
NOMIDAGI  
DAVLAT  
MUKOFOTI

14 YOSHDAN 30 YOSHGACHA  
BO'LGAN IQTIDORLI QIZLARGA  
ADABIYOT, MADANIYAT, SAN'AT,  
FAN, TA'LIM SOHALARIDAGI HAMDA  
JAMOATCHILIK FAOLIYATIDAGI  
ALOHIDA YUTUQLARI UCHUN  
BERILADI.



“PREZIDENTIMIZ-  
NING SO‘ZLARI  
YURAGIMDAN  
JOY OLDI”

Oftoboyim QURBONOVA

Durdonabegim ZAYNOBIDDINOVA

“ENG  
BAXTLI  
QIZLARDAN  
BIRIMAN”

Iqtidorli va faol qizlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida ta'sis etilgan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti tanlovi madaniyat, san'at, fan, ta'lim, adabiyot va jamoatchilik yo'nalishlarida yuzlab yosh iqtidor sohibalarini kashf etdi. Jumladan, o'tgan yillar davomida Andijon viloyatidan ham 28 nafar qiz ana shu yuksak mukofot sohibiga aylandi.

Prezidentimiz farmoni bilan joriy yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar orasida Andijon davlat tibbiyot instituti davolash fakulteti talabasi Durdonabegim Zaynobiddinova ham bor.

Bu mukofotga fan yo'nalishida sazovor bo'lgan iste'dod sohibasi Durdonabegim tibbiyot sohasida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

– Men kundan kunga yuksalib borayotgan O'zbekistonning eng baxtli qizlaridan biriman, – deydi Durdonabegim Zaynobiddinova. – Chunki intilishlarim, ilm-fan yo'nalishidagi izlanishlarim



yuksak baholanib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga munosib topilganimdan behad baxtiyorman. E'tirof va yuksak mukofot uchun, men va men kabi yurtimiz yoshlarini qo'llab-quvvatlayotgan, ulkan g'amxo'rliklar ko'rsatayotgan Prezidentimizdan minnatdorman.

Durdonabegim "Homidor ayollarda qon-tomir kasalliklarining oldini olish va hozirgi zamonaviy davolash usullari" mavzusida ilmiy ish olib bormoqda.

Faxriddin  
UBAYDULLAYEV,  
O'za muxbiri

E'TIROF VA YUKSAK  
MUKOFOT UCHUN, MEN  
VA MEN KABI YURTIMIZ  
YOSHLARINI QO'LLAB-  
QUVVATLAYOTGAN,  
ULKAN G'AMXO'RLIK  
KO'RSATAYOTGAN  
PREZIDENTIMIZDAN  
MINNATDORMAN.

HAR YILI  
QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI,  
VILOYATLAR  
VA TOSHKENT  
SHAHARINING  
IKKITADAN VAKILIGA  
(JAMI 28 TA)  
BERILADI.

Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qaroriga ko'ra, bir guruh iqtidorli qizlar a'lo xulqi, noyob iste'dodi, zukkoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari hamda ta'lim, fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sport sohalarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ular orasida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o'qituvchisi Oftoboyim Qurbonova ham bor. Yosh olim fan yo'nalishida ushbu mukofotga loyiq, deb topildi.

– “Zulfiyaxonim qizlari” degan nomga muyassar bo'lganimdan behad mamnunman, – deydi Oftoboyim. Ayniqsa, davlat mukofotini Prezidentimizning o'zlaridan qabul qilib olishni aytmaйсizmi?! Prezidentimizning: “Ilmiy ishingizni davom ettiring. Sizni shu darajaga yetkazgan ota-onangizga mening salomim va rahmatimni yetkazib qo'ying”, – degan so'zlari yuragimdan joy oldi. Kelgusidagi ilmiy izlanishlar olib borishim uchun katta kuch berdi.


Hozir institutning “Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi” kafedrasida assistenti vazifasida faoliyat olib borish bilan birga “Qashqadaryo viloyati sharoitida kunjutdan mo'l hosil yetishtirish agrotexnologiyasini yaratish” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishini izchil davom ettiryapman. Mazkur ilmiy ishning ahamiyati shundaki, viloyatda kunjutning aynan “Toshkent-122” navini yetishtirishda, uning ko'chat qalinligi, ekish va sug'orish me'yorlari bir vaqtda o'rganib chiqilmagan. Hozirda 34,5 gektar maydonni egallagan tajriba-sinov maydonida ushbu nav urug'lari ekilgan.

Yosh olim yangi agrotexnologiyani qo'llash orqali hosildorlikni bahorgi ekishda 18, yozgi ekishda 16 foizga yetkazishni mo'ljallagan.

O'lmas BAROTOV,  
O'za muxbiri



## Mahalladagi Yoshlar yetakchisini saralash natijalari



Tanlangan nomzodlar sifat tarkibi:



35 yoshgacha  
bo'lganlar  
**9 112**  
nafar  
(97,9%)

Respublika bo'yicha **9 309** ta mahallada Yoshlar yetakchilari lavozimiga nomzodlar uchun "vacancy.argos.uz" portalida tanlov e'lon qilingan edi.

Tanlovda jami **42 538** nafar nomzod (bir o'ringa **4,6 nafar**) onlayn hujjat topshirdi.

Respublika ishchi guruhi nomzodlar bilan suhbat o'tkazib, **9 309 ta (100%)** mahalla uchun nomzodlar tanlab olindi.



Erkaklar  
**8 467**  
nafar  
(91%)



Ayollar  
**842**  
nafar  
(9%)



3 yilgacha  
mehnat stajiga  
ega bo'lganlar  
**5 875**  
nafar  
(63,1%)



3 yildan ortiq  
mehnat stajiga  
ega bo'lganlar  
**3 434**  
nafar  
(36,9%)



Oliy  
ma'lumotlilar  
**7 411**  
nafar  
(79,6%)



Harbiy xizmatni  
o'taganlar  
**5 927**  
nafar  
(63,6%)  
shundan,  
yillik - **2 626** nafar  
(28,2%),  
oylik - **3 301** nafar  
(35,5%)



Moliya-  
iqtisodiyot  
sohasidan  
**1 125**  
nafar  
(12,1%)



Ijtimoiy-  
gumanitar  
sohadan  
**3 881**  
nafar  
(41,7%)



Huquqni  
muhofaza  
qiluvchi  
organlardan  
**321**  
nafar  
(3,5%)



Yoshlar ittifoqi  
yetakchilari  
**1 509**  
nafar  
(16,2%)

## TOSHKENTDA XALQARO MARAFON!

**27-mart kuni Toshkent shahrida "Navro'z" IV Toshkent Xalqaro marafoni hamda Toshkent xalqaro ShHT yarim marafoni o'tkaziladi.**

Marafon O'zbekiston sportni rivojlantirish vazirligi, Yengil atletika federatsiyasi, Milliy Olimpiya qo'mitasi, Toshkent shahar hokimiyati va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida o'tkazilmoqda. Tadbir professional sport ustalari bilan birga, o'z salomatligiga befarq bo'lmagan barcha ishtirokchilarga ochiq.

Marafonning start va finish chiziqdagi poytaxtimizdagi "Afrosiyob" va "Beshyog'och" ko'cha-

lari chorrahasida joylashgan. ShHT Toshkent yarim marafoni poytaxtning markaziy Nukus, Abdulla Qodiriy va Abay ko'chalari bo'ylab o'tadi.

Yugurishlar 2 xil - 42 km 195 m va 10 km masofada o'tkaziladi. Sportchilarga belgilangan masofani bosib o'tishlari uchun vaqt chegarasi belgilanadi. Klassik marafon yuguruvchilari yoshi 18 dan katta bo'lishi lozim, 10 km masofaga yuguruvchilarning yoshi cheklanmagan.

Sportchilar ro'yxatdan o'tganlaridan so'ng itticket.uz tizimida ishtirokchilik to'lovini amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

To'lovlar klassik marafon yuguruvchilariga 100 ming so'm, 10 km ga yuguruvchilar uchun 50 ming so'mni taspkil etadi. Shundan keyin ularga sport dasturi turiga muvofiq chiqli ko'krak raqami, atributlari bo'lgan suvenir, ryuzak, kepka, futbolka, marafon va 10 km ga yugurish yo'nalishi, trassa haqida buklet jamlanmasi taqdim etiladi.


G'oliblarni aniqlash uchun 80 nafar hakam va tashkiliy masalalarda yordam berish uchun 240 nafar volontyor jalb qilinadi.

Marafonda erkaklar va ayollar o'rtasida 1-5-o'rinlarni egalagan ishtirokchilar mos ravish-

da 30 million, 20 million, 10 million, 5 million va 3 million so'mlik pul mukofotlari bilan taqdirlanadi. 10 km masofada erkaklar va ayollar o'rtasida 1-3-o'rin egalari 3 million, 2 million, 1 million so'm pul va medallar bilan mukofotlanadi.

ShHT yarim marafoni joriy yilning sentabr oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining sammiti tadbirlari dasturida o'tkaziladi.

**Lobar QODIROVA,**  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



## ANVAR ABDUQAYUM "O'YINCHOQNING CHIROYIGA ALDANMANG!"

– Anvar Abduqayum o'zi kim?  
– 1981-yilning 18-sentabrida Toshkent shahrida tug'ilganman. Aslimam, naslimam hastimomlik. Uchtepa tumani Beshqayrag'och mahallasidagi 116-maktabni tamomlab, litseyda, undan so'ng Toshkent arxitektura va qurilish instituti menejment fakultetining bakalavr hamda magistratura bosqichlarida tahsil olganman. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakultetida ikkinchi mutaxassislik bo'yicha o'qiganman. Ayni paytda tarix fanidan doktorlik dissertatsiyasi yoqlash uchun harakat qil-yapman. Yana, Turkiya davlatida biznesda insoniy psixologiya bo'yicha ham ta'lim olganman.

– Nega aynan o'yinchoq ishlab chiqarish sohasini tanlagansiz?

– Bilasizmi, sellofan paketning xomashyosi O'zbekistondan chiqqani uchun boshida paketning biznesini yo'lga qo'yganmiz. Yoshligimdan chet elga o'zimizning mahsulotimni eksport qilishni orzu qilardim. Ammo Qozog'iston, Qirg'iziston kabi bir nechta qo'shni davlatlarning yirik tadbirkorlari bu mayda biznes, deya pul tikishni xohlashmagan. Xullas, bu sohaning "boshog'riqlari" ko'p bo'lgani uchun qisqa muddatda undan voz kechdim. Keyin plastmassa buyum, xo'jalik mollari va o'yinchoqlar ishlab chiqarmoqchi bo'ldim. Sohani o'rgansam, xo'jalik tovarlari ishlab chiqarish ancha rivojlanib, ko'plab yirik sexlar vujudga kelib ulgurgan ekan. Bozorda raqobat o'ta kuchli edi. Bu borada kechikkanimni anglab, yana boshqa soha qildirdim va avtomobil uchun ehtiyot qismlari ishlab chiqarmoqchi bo'ldim. Masalan, bampet, kalpaklar va hoka-

zo. Lekin ularda ham raqobatchilar ko'p, qalaversa "GM"ning talablari o'ta kuchli edi...

Izlanib-izlanib, o'yinchoq sohasida to'xtaganman. Buning birinchi sababi, yoshligimdan dadam ikkalimiz "Sovplastital" zavodidan bo'yalmagan o'yinchoq va qo'g'ir-choqlarni olib, uyda ularga rang berib, do'konlarga tarqatardik. 12 yoshimda aynan "Sovplastital" zavodining ichki hayoti bilan ozmi-ko'pmi tanishishga muvaffaq bo'lganman. U yerda o'yinchoq qanday ishlab chiqarilishidan tortib unga qanday xomashyo ishlatilishi, qanday sotilishigacha ma'lumot olganman. Bundan judayam hayratlanganman. Shuning uchun sohaga bolaligimdan qiziqish uyg'ongan va kelajakda shu ish bilan shug'ullanaman, deb niyat qil-gandim.

Oradan vaqtlar o'tib, ikkala o'g'lim ham Xitoy o'yinchoqlarini o'ynab allergiya bo'lib qoldi. Xitoyda ishlab chiqarilgan o'yinchoqlar sifatsiz, tez sinuvchan edi, ba'zida farzandlarimga jarohat yetkazardi, qandaydir sassi q hidi bor edi. Keyinchalik allergolog aytishicha, bolalarimda aynan unga (o'yinchoqqa) sepilgan bo'yoq allergiya qo'zg'agan ekan. Orada Xitoyga borayotib, vizamning muddati tugagan uchun chegaradan o'tkazishmagan va deport bo'lishimga o'zgina qolgan. So'ng Rossiyaga

## O'YINCHOQLAR BIZNES QIROLI BILAN SUHBAT

Gazetamizning bugungi mehmoni – o'yinchoqlar biznes qiroli, "Toy bola" brendi ostida Markaziy Osiyodagi eng yirik o'yinchoq ishlab chiqaruvchi zavod egasi, Rossiya, Ozarbo'yjon, Qozog'iston, Turkmaniston, Tadjikiston hamda Qirg'izistonga mahsulot eksport qilayotgan tadbirkor Anvar ABDUQAYUM. Ma'lumot o'rinda, qahramonimiz "AFIET", "PURO" va yana bir qancha taniqli brendlarning asoschisi hamdir. Marhamat, sizlarni yuzma-yuz qoldiramiz.

borib, "ASHAN" supermarketida Ukraina, Belarus, Rossiyada ishlab chiqarilgan o'yinchoqlarni ko'rib qolganman. So'ng o'yinchoq ishlab chiqarish xayolimga kelgan. "Ukrain, belorus va ruslar eplagan ishni nega men qilolmayman?", deb bu ishga qattiq kirishganman. O'sha yerdan 10-15 ta o'yinchoq namunalarni olib, bozordagi narx-navosini surishtirib, foyda qilish mumkinligini anglaganman. Shu tariqa o'zimga ishonch paydo bo'lgan va "Bismilloh!" deb ish boshlaganmiz.

– O'zbek bolalari uchun o'yinchoq ishlab chiqarishda qaysi jihatlarni muhim sanaysiz va o'zingiz bunga e'tibor beryapsiz?

– Birinchi navbatda, sifatlil hamda farzandlarimizning sog'lig'iga zararli bo'lmagan mahsulot ishlab chiqarishga harakat qilamiz. Mobodo kichkintoylar o'yinchoqni bilmadan yutib yuborsa, hazm bo'lmasligi, dilbandlarimizni rak qilmasligi va ularda allergiya qo'zg'amasligi uchun ko'pgina jihatlarni hisobga olamiz. Mahsulotlarimizni qayta ishlangan yoki axlatdan to'plangan emas, balki sof xomashyolardan tayyorlaymiz. Bo'yoq ishlatmaymiz. Zararsiz plastmassalardan foydalanamiz. Keyin farzandlarimizning ongini buzuvb, ularda yot fikr uyg'otuvchi, mentalitetimizga va milliy qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan Betmen, Supermen, Shrek, Barbi, toshbaqa nindza va Spaydermen kabi figuralarini ishlab chiqarmaymiz. Biz faqat milliy qad-

ertaklaridagi qahramonlar, tarixiy shaxslarimiz asosida o'yinchoq ishlab chiqarish, hattoki multfilm ishlab chiqarish, uning qahramonlarini o'yinchoqqa aylantirishni ham reja qilganmiz. Ammo bu bo'yicha aytarli natijaga erishmadik. Sababi bu bizdan juda katta mablag' talab etadi. Halicha unga qo'l urmadik, lekin Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, qalaversa milliy kiyimdagi qahramonlar, milliy ovqatlarimiz, urf-odatlarimizga urg'u beradigan qiziq multplikatsion film va uning multqahramonlarini ishlab chiqarish rejimizda bor.

– Til o'rgatadigan, diniy, tarixiy yoki boshqa sohalarga oid bilimlar beruvchi qiziqarli o'yinchoqlar ishlab chiqarishni o'ylaganmisiz? Qachon bizda bu soha yo'lga qo'yiladi?

– Albatta, bu g'oyalari ustida bosh qotiryapmiz. Ammo mazkur masala ham mablag'ga borib taqalgani uchun rejaligicha qolyapti. Kelgusida bu borada ham bir qator ishlar qilish niyatimiz bor. Masalan, INHA, Turin universiteti talabalari bilan hamkorlikda bir nechta loyihalar boshlaganmiz. Nasib qilsa, aynan siz aytgandek robot o'yinchoqlar ham o'zimizda ishlab chiqarila boshlaydi.

– Tarixga qiziqasiz. Uzugingizda ham Amir Temur bayrog'ining tasviri tushirilgan. Lekin nega milliy qahramonlarimizning zamon talabiga javob beradigan siymolari, bolalarbop o'yinchoqlari yo'q? Axir dunyo xalqlarining ko'pchiligida samuraylar, gladiatorlar va boshqa an'anaviy o'yinchoqlar bor-ku?

– Birinchiidan, bu o'yinchoq emas, haykalcha bo'lib qoladi. Musulmon ota-onalar esa aksar hollarda bolaligiga haykalli o'yinchoqlarni olib berishmaydi. Ikkinchidan, buni ishlab chiqarish uchun juda katta mablag' va eng so'nggi texnologiyalar kerak bo'ladi. Qalaversa, ularga bo'yoq sepib rang beriladi. Arzon bo'yoqdan foydalanilgan mahsulot esa sifatsiz, sog'liq uchun zararli bo'ladi. Qimmat bo'yoq ishlatilgach, narxi o'sib ketadi. Xorijga eksport qilsangiz, o'zbek milliy qahramonlari xorijda qiziq emas. Ularning o'z qahramonlari, masalan, "Masha va ayiq" singari qiymati nech-chidir million dollarni tashkil etuvchi multiserial hamda qiziqarli filmlari ko'p. Bozor ulardan ortmaydi...

Ayni paytda men ham shunaqa film ishlaganda katta mablag' sarflagandan ko'ra, bitta zavod ochib, qanchadir odamni ish bilan ta'minlaganim foydaliroq bo'ladi. Siz aytayotgan qahramon – o'yinchoqlarning xomaki nusxasini tayyorlab qo'yganmiz. Surtarlari bor, qo'lmda. Faqat uni kelgusida boshqacha ko'rinishda, deylik, rezinali plastmassalardan ishlab chiqarishni reja qilganmiz.

– Mazmunli suhbat uchun tashakkur!

Abdulaziz AHMEDOV  
suhbatlashdi.

“ XALQIMIZNING MILLIY  
ERTAKLARIDAGI QAHRAMONLAR,  
TARIXIY SHAXSLARIMIZ ASOSIDA  
O'YINCHOQ ISHLAB CHIQRISH,  
HATTOKI MULTFILM ISHLAB,  
UNING QAHRAMONLARINI  
O'YINCHOQQA AYLANTIRISHNI  
HAM REJA QILGANMIZ.

riyatlarimizga zid bo'lmagan o'yinchoqlarni chiqarib, milliyligimizni targ'ib qilishni maqsad qilganmiz. Keyin iqtisodiy ahvoli o'rtahol aholi ham sotib olishga qurbi yetadigan arzon, sifatlil o'yinchoqlar ishlab chiqarishning yo'lini ham o'ylab topganmiz. Shuning uchun ham brendimiz xalqimiz xonadonlariga tez kirib borgan.

– Nega o'zimizda ishlab chiqarilayotgan aksar o'yinchoqlarning qiyofasi ajnabiy? Milliy qahramonlarimiz, o'zbek ertaklaridagi obrazlar asosida tayyorlangan o'yinchoqlar urf bo'lmagan?

– Buni anchadan buyon o'ylayapmiz. 2016-yilda Shavkat Mirziyoyev Prezident bo'lganlaridan so'ng, biz tadbirkorlarda ham katta umidlar paydo bo'ldi va xalqimizning milliy




## “TAXI” NING MUAMMOLARI HAR XIL HAYDOVCHI, HAR XIL YO‘LOVCHI...

### “Haydovchilar qaytim bermaydi”

“Har to‘kida bir aqb” deganlariday, har yo‘lovchida bir dard bor. Albatta, birinchi muammo doimgiday pul bilan bog‘liq. “Manzilga borganda qaytim bermaslik uchun bahona qidiradiganlar ko‘payib qoldi”, deydi yo‘lovchilardan biri. Aholining ko‘p qismi taksilarda qolib ketayotgan qaytim uchun norozilik bildirmoqda. Hech kim cho‘ntagidan ortiqcha pul ketkazishni istamaydi. Yo‘lovchilar 200 so‘m kam bersa, haydovchi talab qiladi, 600-800 so‘m ko‘p bersa, qaytim berishmaydi. Bu mashmashadan qutilish uchun karta orqali to‘lov qilishni afzal ko‘radiganlar ham bor. Ammo karta orqali to‘lov qilinganda mashina topilishi yoki yetib kelishi juda uzoq vaqt oladi.

Haydovchilar pul yechilganiga qaramasdan kartasi yo‘qligi yoki boshqa sabablarni bahona qilib, naqd pul ham talab qilishar ekan. “Ilovaning o‘zida ham shikoyatlar qoldirganman. Lekin yaxshi haydovchilar ham bor. “Yandex”ning o‘zi arzon va qulay. Ammo haydovchilar...”, deydi qaytim ololmagan yo‘lovchilardan biri.



### Shofyorning hiylasi

“Ayrim haydovchilar “Yandex”ni aldashga o‘tgan. Yo‘lovchini mashinaga o‘tqizib olgach, dasturini o‘chirib, Yandexsiz obo‘rib qo‘yadigan bo‘libdi. Bu Yandex qoidalariga ham, odamgarchilikka ham zid”, deydi taksi xizmatidan tez-tez foydalanadigan yo‘lovchi, “Yo‘lda taksi ushladim, ichida yo‘lovchisi ham bor ekan, yo‘lda yana bittasini oldi. Oldinda o‘tirganni tushirganida “yandex”ligini bildim, undan ham pulni oldi”.

Buyurtmachini rozi qilish va halol ishlash haydovchining burchi emasmi? Yo‘lovchilarning aytishicha, haydovchilar ko‘pincha yetib kelmasdan oldin “keldim” tugmasini bosib qo‘yishadi. Shu sabab ko‘p kutib qolish holati yuzaga keladi. Ba‘zan xaritaning joylarini noto‘g‘ri ko‘rsatishi va haydovchining erinchoqligi sabab “Yandex”ning boshqa joyga borib to‘xtashi ortidan muammolar paydo bo‘ladi. Mashina va haydovchi tozaligi, muomalasi ham turli shikoyatlarga sabab bo‘lyapti.

Albatta, besh qo‘l barobar emas. O‘z vazifasini chin dildan bajaradigan haydovchilar ham bor. Bunday insonlarga yo‘lovchilarning o‘zi ortiq bilan xizmat haqi berishdan og‘rinmaydi. Taxi xizmati yaxshi ishlashini istar ekanmiz, shikoyatlar yog‘ilayotgan ikkinchi tomon-haydovchilar fikri bilan ham qiziqdik.

Tong otishi bilan shaharda hayot qaynaydi, hamma o‘z manziliga shoshadi. Avvalgiday taksi izlab katta yo‘lga chiqish, narx talashish, qo‘l silkitib mashina to‘xtatish shart emas. Biror manzilga borish kerak bo‘lganda darrov “Yandex taxi” xayolimizga keladi. “Yandex taxi” qulay va arzon. Ammo oramizda haydovchi va yo‘lovchi qoidalarini bilmaydigan, shuning ortidan kelishmovchilik va dilxiralik paydo bo‘lishiga sababchi bo‘layotgan insonlar juda ko‘p.

Mavzu yuzasidan yo‘lovchi va haydovchilar fikri bilan qiziqdik.

### Yo‘lovchining barcha istagini bajarish shartmi?

Haydovchilar uchun ham “Yandex taxi” afzalroq. Sababi yo‘lovchi qidirmaydi, manzil aniq, xohlagan payt ishlash mumkin. Ammo haydovchilar ham ayrim masalalarda mamnun emas. “Ko‘cha taksisti 10 mingga olib boradigan joyga kezi kelsa, 4-5 ming evaziga xizmat ko‘rsatishimizga to‘g‘ri keladi”, deydi anhadan buyon shu faoliyat bilan shug‘ullanyotgan haydovchi. Ba‘zan 300 metr masofaga borish uchun taksi chaqirgan inson uchun 1 km naridan kelishlariga to‘g‘ri kelar ekan. Har bir mijoz pullining ma‘lum foizi “Yandex” kompaniyasiga, qolgani yo‘qilg‘i, internet, ta‘mirlash, jarima, tushlik va kechki ovqatga sarflansa, haydovchining o‘ziga sof daromad juda kam qolishini aytishadi.

Ishchilarning ko‘pini tushum qoniqtirmagani sabab uzoq ishlay olishmaydi. Har kuni 8-10 soat rulda doimiy xavf va stress, yo‘lovchilarning xarakter va muomalasiga chidash ham oson emas. Biror manzilga otlangan haydovchi uni qanday mijoz kutayotganini bilmaydi, ehtimol og‘ir yuk, bolali, mast, sigaret chekuvchi yo‘lovchi bo‘lishi mumkin. Kimdir yo‘lda telefon o‘ynab, kimdir musiqa tinglab, tamaki chekib, uxlab, baland ovozda gaplashib ketadi, do‘kondan sigaret olib kelib ber deydi



yo‘lovchilar ham bor. Taksistlar yo‘lda ataylab kech qolishmaydi yoki mijozlar manziliga kechiksiz, demaydi, tirband yo‘llarda xijolat bo‘lib igna ustida o‘tirishadi, foydalanuvchining yomon izoh qoldirishini istamaydi. Tezroq manzilga yetib, navbatdagi buyurtmachi tomon otlanadi.

Xarita manzilni aniq ko‘rsatmasligi haydovchilarning ham asosiy muammolaridan biri. Masalan, yo‘ldan o‘tib bo‘lmaydigan ariq yoki to‘siq chiqadi - u yaqinda paydo bo‘lgan - xaritaga kiritilmagan. Ba‘zan xaritada belgilangan manzilga eltib qo‘yishlariga qaramasdan yo‘lovchilarning ayrimlari “uyim bu yerda emas, yana ichkariroq haydang, boshqa yo‘ldan aylanib o‘ting” deb turib oladi.

Ko‘ryapmizki, muammolarning ko‘pi insonlarning bir-birini tushunmasligi, hurmat qilmasligi ortidan kelib chiqyapti. Haydovchilik madaniyati xizmat ko‘rsatishning eng oldingi safiga chiqishi kerak. Mijozlar ko‘ngil xotirjamlik bilan ishonib buyurtma qilsin, “shofyor qanaqa ekan” degan xavotirda bormasin. “Yandex”ning kutib turish, manzilni o‘zgartirish funksiyalarini yaxshilash, xarita bazasini yangilash, qo‘ng‘iroq orqali buyurtma berish xizmatini yo‘lga qo‘yish orqali muammolarning ko‘pini ijobiy hal etish mumkin. Asosiysi barcha bir-biriga haydovchi-yo‘lovchi emas, avvalo inson sifatida qarashi lozim.

Shahribonu RAHMATOVA

“  
ASOSIYSI BARCHA BIR-  
BIRIGA HAYDOVCHI-  
YO‘LOVCHI EMAS,  
AVVALO, INSON  
SIFATIDA QARASHI  
LOZIM

# Jizzax politexnika instituti jamoasi



Butun O'zbekiston  
xalqi va mehmonlarini  
yaqinlashib kelayotgan  
umumxalq bayrami –  
Navro'z ayyomi bilan  
samimiy qutlaydi!  
El-yurtimiz doimo tinch,  
dasturxonlarimiz to'kin  
bo'lsin! Yaratgan  
dehqon-u bog'bonlarimiz  
hosiliga baraka berib,  
har kuningiz Navro'zdek  
quvonchli o'tishini tilab  
qolamiz!

## YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:  
**Hamza  
ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Iqbol PARDAYEVA**

Musahhihlar:  
**Shahribonu RAHMATOVA,  
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida  
2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.  
Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifa-  
landi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.  
Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-  
xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq.  
Korxonamanzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203.  
Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma – G-355. Adadi – 10500.  
Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Soytimizga o'tish  
uchun QR-kodini  
telefoningiz orqali  
skaner qiling.



1 2 3 4 5 6